

## STATISTIKA HAQIDA TUSHUNCHA VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BAND AHOLISINING SO‘NGGI 5 YILLIK STATISTIK TAHLILI

Sayfullayeva Nigora Fayzulla qizi

Email: [nigorasayfullayeva05@gmail.com](mailto:nigorasayfullayeva05@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada statistika bo‘yicha umumiy ma‘lumotlar joy olgan. Shuningdek, makroiqtisodiy salohiyat jihatidan mehnat resurslari haqida ham to‘liqroq ma‘lumot berilgan. Undan tashqari O‘zbekiston Respublikasi band aholi qatlami so‘nggi 5 yillik tahlili statistikasi ham yoritilgan. Qo‘shimcha ravishda mehnat resurslari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari ham yoritilgan

**Kalit so‘zlar:** Iqtisod, statistika, mehnat resurslari, makroiqtisodiyot va statistik tahlil.

### ABSTRACT

This article contains general information on statistics. Also, more detailed information is given about labor resources in terms of macroeconomic potential. In addition, statistics of the analysis of the employed population of the Republic of Uzbekistan for the last 5 years are also covered. In addition, the decrees of the President of the Republic of Uzbekistan on labor resources and the articles specified that given information.

**Keywords:** Economics, statistics, labor resources, macroeconomics and statistical analysis.

### АННОТАЦИЯ

Эта статья содержит общие сведения о статистике. Также дана более подробная информация о трудовых ресурсах с точки зрения макроэкономического потенциала. Кроме того, приводится статистика анализа занятого населения Республики Узбекистан за последние 5 лет. Кроме того, также перечислены указы Президента Республики Узбекистан о трудовых ресурсах и статьи.

**Ключевые слова:** экономика, статистика, трудовые ресурсы, макроэкономика и статистический анализ.

Mamlakatimizda statistik jihatdan so‘nggi besh yilda amalga oshirayotgan ishlar va binobarin bandlik masalasi ko‘zga tashlanyapti. Bu masalada prezidentimiz farmoni bilan ko‘plab ijobiy ishlarni ko‘rishimiz mumkin. Bu jarayonlar keyinroq batafsil tushuntiradigan bo‘lsak, avvalo statistika atamasiga e‘tiborimizni qarataylik.

Statistika- “Status” degan lotin so‘zidan kelib chiqqan. Italyanchada stato (stato) davlat, statista (statusta) davlat bilimdoni degan ma‘nolarni anglatadi.

Shuningdek statistikaga to‘liqroq to‘xtaladigan bo‘lsak u asosan amaliy jarayonlarda tushuniladi. Ya‘ni ma‘lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va chop etish faoliyatlarida nazarda tutiladi. Shu bilan birgalikda statistika so‘zini ishlatar ekanmiz albatta ko‘z oldimizga raqamlar mujassam bo‘ladi va albatta shubhasiz statistika ta‘riflovchi umumiy ko‘rsatkichlar, statistik raqamlar to‘plami, yig‘indisi sifatida ham tushuniladi.

Statistikada biz yana misol sifatida nimalarni ko‘rishimiz mumkin. Iqtisodiy jihatdan yondashadigan bo‘lsak, statistika ijtimoiy jihatdan bizga ma‘lumotlarni beradi. Ijtimoiy hodisalar deganda iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘daniy, siyosiy, tabiiy hodisalar tushuniladi. Qo‘shimcha ravishda statistikning birbo‘g‘ini bo‘lgan makroiqtisodiy statistikaga to‘xtaladigan bo‘lsak u makroiqtisodiyot haqida ma‘lumotlarni to‘playdi. Shu bilan birgalikda makroiqtisodiy salohiyatning bir qismi bo‘lgan mehnat salohiyati haqida aytadigan bo‘lsak.

Mehnat salohiyati- mamlakatdagi mehnatga layoqatli, yetarlicha bilim va tajribaga ega bo‘lgan, xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo‘lgan insonlar qatlami tushuniladi.

Iqtisodiy faol va nafaol aholi haqida tushunchaga to‘xtaladigan bo‘lsak. Iqtisodiy faol aholi soni mennat qilish yoshidagi aholi guruhiga kiruvchi ishlayotgan aholi (IA) soniga ishsizlarning sonini qo‘shish orqali topiladi;

$$IF=IA+IS$$

Iqtisodiy nafaol aholi deb nogironligi bo‘lgan va ishga layoqatli bo‘lmagan aholi qatlami kiradi.

Iqtisodiy faol aholining yuklama koeffitsiyenti

$$Kyuk=INFa/Ifa*100 \quad \text{formulasi orqali topiladi.}$$

Aholi yosh tarkibi jihatidan band va band bo‘lmagan aholi statistikasini mamlakatimiz miqyosida so‘nggi 5 yil ichida amalga oshirilgan ishlar va raqamlarda va grafiklarda ko‘rib chiqamiz.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI 2018-YILDA AHOLI BANDLIGIGA KO‘MAKLASHISH DAVLAT DASTURINI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 22-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasidagi yangi sanoat korxonalarini qurish hisobiga aholini, ayniqsa yoshlar va kam ta‘minlangan oilalar bandligini ta‘minlash, yangi doimiy ish o‘rinlarini yaratish, xizmat ko‘rsatish sohasini kengaytirish, shuningdek, shu asosda aholi turmush sifati va farovonligini oshirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalarni ijro etish maqsadida:

1. Quyidagilar, 2018-yilda aholi bandligiga ko‘maklashishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin:

birinchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakat hududlariga amalga oshirgan tashriflari davomida ishlab chiqilgan sanoat, qishloq xo‘jaligi tarmoqlari va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi loyihalar, shuningdek, respublika hududlari, shaharlar va tumanlarini kompleks rivojlantirish dasturlari hamda tarmoqlarni rivojlantirish dasturlari doirasida 168,2 mingdan kam bo‘lmagan doimiy ish o‘rinlarini yaratish;

ikkinchi, faoliyat yuritmayotgan, xususiylashtirilgan korxonalar va davlat mulki obyektlari negizida yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish bo‘yicha “yo‘l xarita”lari va investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga 19,9 ming yangi ish o‘rinlarini tashkil etish;

uchinchi, qishloq joylarda arzon uy-joylar, ko‘p qavatli turar-joylar, yo‘l-transport va muhandislik-kommunal infratuzilma qurilishi hisobiga 46,6 mingta ish o‘rinlarini tashkil etish;

to‘rtinchi, yangi maktabgacha ta‘lim va ta‘lim muassasalari, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport obyektlarini qurish va tiklash natijasida yangi ijtimoiy infratuzilma muassasalarini ishga tushirish hisobiga 10,6 mingta ish o‘rinlarini tashkil etish;

Aholi yosh tarkibi jihatidan band va band bo‘lmagan aholi statistikasini mamlakatimiz miqyosida so‘nggi 5 yil ichida amalga oshirilgan ishlar va raqamlarda ko‘rib chiqamiz.

O‘zbekiston davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga asosan aytadigan bo‘lsak **2017 yilning** birinchi yarmida O‘zbekistonda rasmiy ishsizlik darajasi 5,2 foizni tashkil etgan.

**2017 yilning** yanvar-iyun oylari yakunlari – 14,162 ish bilan band bo‘lgan.

**2019-yilda** mehnat resurslari soni 19 007,8 ming kishiga yetganligi haqida ma‘lumotlar keltirilgan va band bo‘lganlar soni 13 541,1 ming kishini tashkil etgan

bo'lsa, bu esa o'z o'zidan **2018 yil** ko'rsatkichlariga nisbatan 2019 yili 100,9 foizni tashkil etadi.

**2021** yil yanvar holatiga ko'ra ish bilan band aholi 13,2 mln kishini tashkil etgan.

**2022** yil holatiga ko'ra jami iqtisodiy faol aholi 14,98 mln kishini tashkil etgan shulardan 13,7 mln kishi band aholi hisoblangan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki 2022 yil holatiga ko'ra band aholi soni qisman o'sgan.

### **XULOSA**

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'radigan bo'lsak Statistika bizga iqtisodiy jihatdan eng kerakli soha hisoblanadi. Shu sababi biz u orqali O'zbekiston Respublikasi Band aholi tarkibini statistik tahlillar jihatidan raqamlarda ko'rib chiqdik. Bulardan ko'rishimiz mumkinki yillar davomida aholiga o'sishiga va iqtisodiy faol aholi soniga nisbatan ham band aholi ko'rsatkichlari o'sib borgan. Davlatimiz Prezidenti Farmonlarida keltirilgan har qanday jumlada biz aholi qulayligi uchun va ularni mamlakat ichkarisida ish bilan ta'minlash chora tadbirlarini ham ko'rib o'tdik..Xulosa o'rnida yana shuni aytishimiz joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yana bir farmonlari yani xususiylashtirish siyosati va tadbirkorlikni ayniqsa issiqxonachilik va qishloq xo'jaligini boshqa bir sohalarini rivojlantirish orqali aholi bandligida sezilarli ijobiy darajaga erishildi desak mubolag'a bo'lmaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

- 1) "STATISTIKA" kitobi Yo. Abdullayev. O. Qudratov ( 2-nashri) 2011 yil. ( 4,5, 140 va 145 betlar)
- 2) Lex.uz
- 3) Kun.uz
- 4) Spot.uz
- 5) Stat.uz